

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombek

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI	10-18
--	-------

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ	19-24
---	-------

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ	25-29
--	-------

Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH	30-35
--	-------

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI)	36-41
---	-------

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI	42-46
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	47-54
---	-------

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH	55-61
--	-------

Mamadaliyev Ulug'bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI	62-69
---	-------

Jalilov Arslon Xoshimovich

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH	70-75
--	-------

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI	76-82
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI	83-87
---	-------

Norkulov Ubaydulla Umarovich

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI 88-92

Пулатов Шердор Нематёнович

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАБАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ 93-105

Yusupov Murodali Sunnatovich

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOYIY-

FALSAFIY MASALALARI 106-110

Suleymanov Sarvar Sunatullayevich

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOYIY-FALSAFIY ASOSLARI 111-116

Shernazarov Ravshan Avazovich

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI 117-122

Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich

VATANPARVARLIKNI IJTIMOYIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI 123-126

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Matkarimova Salomat Ko'ziyevna

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK 127-133

Tairova Maxfuza Abdusattorovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI 134-139

Rahimova Maftuna

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA 140-143

Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR 144-147

Xursanov Nurislom Iskandarovich

O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI 148-154

Umarov Umidjon Akram o'g'li

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI 155-159

Облокулова Шахло Асрор қизи

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ 160-164

Nazarova Lola Maqsadilla qizi

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI 165-170

Umarxonova Dilafruz Murotjonovna

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI 171-175

Yunusova Ganjina Rustamovna

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI 176-180

Мусаев Файзулло Оманович

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LESIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI	283-289
---	---------

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
--	---------

Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
--	---------

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
--	---------

Маматкулов Камолiddин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
---	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
---	---------

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
--	---------

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
---	---------

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
---	---------

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
--	---------

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
---	---------

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
---	---------

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	376-381
--	---------

Received: 30 June 2024

Accepted: 5 July 2024

Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

ETYMOLOGICAL AND LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF THE TERMS "ANGER" AND "G'AZAB" IN ENGLISH AND UZBEK

Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna

Doctoral student of Bukhara State University (PhD)

Abstract. This article will talk about the meaning of the concept of "anger", "anger", the synonymous context that it forms. About the level within this synonymous circle and explores the groups of dictionary meanings that make up the concept of anger, as well as its etymological layer.

Keywords: anger, rage, furious, discontent, forgiveness, anger vocabulary group of meanings, rank

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotasiya. Ushbu maqola "anger", "g'azab" tushunchasining ma'nosi, u hosil qilgan sinonimik doirasi haqida ma'lumot beradi. Shu sinonimik doira ichidagi darajalanish haqida va g'azab tushunchasi tashkil qilgan lug'aviy ma'no guruhlarini hamda uning etimologik qatlamini o'rganadi.

Kalit so'zlar: g'azab, qahr, jahl, norozilik, kechinma, g'azab lug'aviy ma'no guruhi, darajalanish,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N30>

Kirish. Ushbu maqolada ingliz tilidagi "anger" va o'zbek tilidagi "g'azab" atamalarining etimologik va leksikografik tahlili amalga oshiriladi. "Anger" va "g'azab" so'zlari, garchi turli tillarda bo'lsa ham, umumiy bir hissiyotni – qattiq noxushlik yoki kuchli norozilikni ifodalaydi. Lekin, bu so'zlarning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va lug'aviy ma'nolari har bir tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu maqolaning maqsadi "anger" va "g'azab" atamalarining etimologik ildizlarini o'rganish, ularning tarixiy rivojlanishini va turli kontekstlarda qanday qo'llanilishini tahlil qilishdir. Shu bilan birga, bu so'zning sinonimlari va uning leksikografik ma'nolarini o'rganish orqali, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qilinadi. Etimologik tahlil so'zlarning kelib chiqishini va o'zgarish jarayonlarini ko'rsatib bersa, leksikografik tahlil esa ularning lug'aviy ma'nolarini va qo'llanish doirasini yoritib beradi. Ingliz va o'zbek tillarida "anger" va "g'azab" so'zlarining o'rganilishi nafaqat lingvistik bilimlarni kengaytiradi, balki turli madaniyatlar o'rtasidagi hissiyotlarni ifodalashdagi o'xshashlik va farqlarni ham aniqlaydi. Bu esa tarjima va madaniyatlararo muloqotda hissiyotlarni to'g'ri ifodalash uchun muhim hisoblanadi.

Tahliliy qism. "Anger" so'zi Proto-hind-yevropa tiliga oid "hengh" o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, "qattiq, og'riqli siqilgan, og'riqli" degan ma'noni anglatadi. U O'rta Ingliz tiliga Old Norsedagi "angr" so'zidan "anger" sifatida kirib, "grief, sorrow, affliction" - "g'azab" degan ma'noni anglatadi. [10] "G'azab" ning ot sifatida ma'lum bo'lgan eng qadimgi qo'llanilishi 1325 yilgacha O'rta Ingliz davrining Genesis & Exodus matnida uchraydi. Bu so'z Proto-German tiliga oid "angazaz" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, nemischa "Angst" (tashvish) va Old English "ange" (tor, og'riqli) kabi so'zlarni keltirib chiqardi. Dastlabki ma'no zulm, jarohat yoki siqilish edi, bu kuchli norozilik va dushmanlik hissining zamonaviy ma'nosiga olib keldi. [7] Anger fe'lining eng qadimgi ma'lum bo'lgan qo'llanilishi O'rta ingliz davriga (1150-1500) tegishli hisoblanadi. Oksford Ingliz tili lug'atining "anger" haqidagi eng dastlabki dalillari taxminan 1175 yilda, Ormulumda uchraydi. "Anger" ko'p manbalarga ega hisoblanadi. Qisman Skandinaviyadan olingan, ehtimol, qisman ingliz tilida konversiya orqali shakllangan bo'lishi ham mumkin. [6]

O'zbek tilining etimologik II jildli lug'atidagi "g'azab" so'zining kelib chiqish o'rnini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu so'z arabcha so'z *ḡadāb(un)* shaklga ega; o'zbek tiliga "dzod" undoshini "z" undoshiga almashtirib qabul qilingan: *ḡadāb-g'azab*. "Qattiq achchiqlandi" - ma'nosini anglatuvchi *ḡadiba* fe'lidan hosil qilingan bo'lib, "qattiq achchiqlanish", "qahr" ma'nosini anglatadi. [3]

Merriam-Webster lug'atida "anger" ma'noviy guruhi asosiy ma'nolari "to make someone angry", "to become angry", kabi semalar orqali "being agry" mavzuviy guruhiga "a threatening or violent appearance or state" semalar orqali, "a strong feeling of displeasure and usually of antagonism" kabi ma'nolardan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi. [8] Cambridge lug'atida esa "to make someone angry" kabi semasi orqali "a strong feeling that makes you want to hurt someone or be unpleasant because of something unfair or unkind that has happened", kabi "the feeling people get when something unfair, painful, or bad happens" kabi mavzuviy guruhlarga bo'linadi [10].

O'zbek tilining Izohli lug'atining VI jildli kitobida ham "G'azab" ma'noviy guruhining asosiy ma'nolarini ko'rib chiqish mumkin [2]. *G'AZAB* غضب (ot) sifatida quyidagi ma'nolar orqali ifodalanishi mumkin. 1. Kuchli darajada achchiqlanish hissi; qahr, jahl. *Kechqurun jamoat jam bo'lganda, g'azabdan ko'karib ketgan kampir yetti pushtidan qolgan uch boylam vasiqani o'rta ko'tarib urdi.* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). *Odamlar Buvirajabni ushlaradi. Uning ko'zlariga hamon yosh kelmas g'azabdan hansiragancha, qalt-qalt titrab o'tirardi.* (Yoshlik) G'azabning fe'l sifatida ishlatilish o'rinlari ham bor. 2. G'azab qilmoq biror ishni bajarishga majburlash bilan yoki boshqa tarzda jazolamoq kabi. *Otasi uch o'g'liga g'azab qilibdi: - Topsalaring topdilaring, bo'lmasa, boshlaring o'limda, debdi.* (Zumrad va Qimmat) *Shohimiz g'azab qildilar, men ham bandi bo'lib keldim.* (Nurali) 3. G'azabiga olmoq, g'azab qilmoq. *Xon bir begunoh odamni g'azabiga olib, toshbo'ron qildiribdi, tosh otmagan odam qolmasin, deb o'zi tepasida turibdi.* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari) *Ular bir to'da soldat bilan behol yotgan Po'lat otaning tepasiga kelishdi. Uni g'azabga olishdi, avrashdi - natija chiqmadi.* (K. Yashin, Hamza). 4. G'azab so'zining so'nggi ishlatilish o'rni- Xudoning g'azabi. *Bu bola - xudoning g'azabi.*

Muhokama qismi. "Anger" ning sinonimlari haqiqatan ham g'azabning yengil shakllaridan tortib, kuchliroq va kuchli his-tuyg'ulargacha bo'lgan gradient bo'ylab mavjud deb hisoblanishi mumkin. Irritation/Annoyance- yengil hissiy munosabatni keltirib chiqaradigan, tez-tez o'tib ketadigan va osonlik bilan hal qilinadigan kichik bezovtaliklar yoki noqulayliklarni

o'z ichiga oluvchi sinonim hisoblanadi. Example: *"The sound of the dripping faucet annoyed her during her study session."* "Frustration"- To'siqlar yoki amalga oshmagan umidlar natijasida chuqurroq g'azablanish, bezovtalanish yoki umidsizlik hissi, odatda o'zgarish yoki hal qilish istagiga olib keladi. Example: *He felt frustration mounting as he tried unsuccessfully to fix the broken printer."* "Resentment" - ko'pincha o'tmishdagi tajribalardan kelib chiqadigan adolatsizliklar yoki noto'g'ri munosabatdan achchiqlanish yoki g'azablanish hissidir. Example: *"She harbored resentment towards her sister for always receiving preferential treatment from their parents."* "Indignation"- adolatsizlik yoki o'z huquqlari, qadriyatlarining buzilishiga javoban tarzda bo'ladigan adolatli g'azab turidir. Example: *"He felt a deep sense of indignation at being accused of a crime he didn't commit."* "Ire"- g'azabning kuchayishi, ko'pincha maqsad yoki sababga ko'ra hosil bo'ladi, lekin hali ham nazorat ostida va asosli. Example: *"His ire was directed at the company's management for their lack of transparency."* "Outrage"- dahshatli, haqoratli yoki adolatsiz deb qabul qilingan narsaga kuchli hissiy munosabat bildirish hisoblanib, ko'pincha harakat yoki o'zgarish istagi bilan birga keladi. Example: *"There was widespread outrage in the community following the unjust verdict in the trial."* "Rage"- to'satdan va kuchli g'azab portlashi, ko'pincha nazoratni yo'qotish va mantiqsiz xatti-harakatlar bilan birga keladi. Example: *"In a fit of rage, he punched the wall, leaving a hole in the plaster."* "Wrath"- ko'pincha qasos olish yoki jazolash istagi bilan bog'liq bo'lgan chuqur va kuchli qahr holati hisoblanadi. Example: *"The villain faced the hero's wrath as he sought vengeance for his fallen comrades."* "Fury"- g'azabning zo'ravonlik yoki g'azabli ifodasi bilan tavsiflangan haddan tashqari va boshqarib bo'lmaydigan g'azab turi hisoblanadi. Example: *"She unleashed her fury upon discovering her partner's infidelity, throwing their belongings out the window."* Ushbu gradatsiya har bir sinonim bilan bog'liq bo'lgan turli darajadagi intensivlik va hissiy munosabatni, nisbatan yumshoqdan tortib to ekstremalgacha aks ettiradi.

O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'atining I jildida "g'azab" tushunchasini- JAHL, ACHCHIQ, G'AZAB, QAHR, ZARDA kabi "jahl" sinonimik oilasiga kiritilganini ko'rish mumkin[4]. Bularning bari nojo'ya xatti-harakat yoki voqea-hodisaga qarshi kuchli darajada yuzaga keladigan keskin his-tuyg'uni ifodalaydi. G'azab, qahr so'zlari belgi darajasini kuchli ifodalaydi. Jahl, achchiq, g'azab, zarda, qahr so'zlari, asosan, so'zlashuv, badiiy uslublarda qo'llanadi. *-Olib bor bachchag'arni! Qamab qo'y!-deb baqirdi mingboshi; jahlidan o'z qo'llarini chimchilardi. Hech kim qimirlamadi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Bobo, bola, gul. Axir uni o'z farzandi jigarbandi ko'krigidan itarib yubordi. Albatta, atay qilmadi, achchiq ustida, asabiy holda qildi, lekin baribir, uni o'z to'ng'ichi siltab tashladi-da!.. U.Hamdami, Muvozanat. Titrayotgan qo'llarimni yashirish uchun shimimning cho'ntagiga suqdim. Yo'q, yuragimni rashk emas, g'azab ham emas, alamli bir iztirob chulg'ab olgandi. O'. Hoshimov, Xayollarga bo'laman tutqun... Asadbekning qahridan cho'chuvchi odam uning mushtidan emas, ko'proq Kesakpolvonning tepkisidan qo'rqardi. T.Malik, Shaytanat. Sendan bitta iltimos, bu odam oldida bilib muomala qil, sharmanda bo'lib ketmaylik. Uyda har qanday zardangni, so'kishingni ko'taraman. T.Malik, Shaytanat.*

"G'azab " - lug'aviy ma'no guruhini, odatda insonlar turli vaziyatlarga va turli sabablarga ko'ra his qilishlari mumkin. Ushbu lug'aviy ma'no guruhini tashkil qilgan g'azabning ma'nodoshlari odamlarda g'azablanish tuyg'ularini qo'zg'atishi mumkin bo'lgan son-sanoqsiz vaziyatlarning bir nechta misollaridir. G'azab ham ichki, ham tashqi omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkab tuyg'u bo'lib, uning intensivligi va ifodasi odamdan odamga juda farq qilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqib, g'azabning har bir

lugʻaviy maʼno guruhida kelgan holatlarda inson oʻzini turli holatlarda turlicha his qiladi va bunday salbiy gʻazablanishni boshidan kechirmasligi ham mumkin, bu insonning oʻsha vaziyat yoki holatlarda oʻzini qanday tutishi yoki sodir boʻlgan koʻngilsizlikni qanday qabul qilishi bilan bogʻliq hodisa hisoblanadi. Insonda kechadigan gʻazab istilohi koʻp qirrali boʻlib, yengil gʻazabdan kuchli gʻazabgacha boʻlgan his-tuygʻular koʻlamini oʻz ichiga oladi. Tildagi gʻazabning ekvivalentlarini tushunish inson hissiyotlari va muloqotining nozik farqlarini tushunish imkonini beradi.

Ingliz tilidagi “anger” maʼnoviy guruhi “destructive”, “powerful”, “agression”, “problem-solving” semalari oʻzbek tilida “qahr”, “gʻazab” maʼnolarini anglatadi, insonlarning aqlini zaiflashtirishi, kutilmagan va achinarli oqibatlarining tushunchasini aks ettiruvchi koʻp qirrali maʼnoni oʻzida mujassam etgan. Ingliz tilidagi “destructive” leksemasi uchun bir nechta maʼno uyalar mavjud:

1. Anger (destructive): Gʻazabning bu turi odatda oʻz-oʻzidan paydo boʻladi va tashqi koʻrinishda namoyon boʻladi, masalan, boshqalarni urish yoki xonadan chiqib ketish. Qon bosimining koʻtarilishi va stress gormonlarini oshishi jismoniy salomatlikka salbiy taʼsir qiladi, bu esa miyada salbiy oʻzgarishlarni aks ettiruvchi tushunchaga olib keladi.

1.1. Destructive (internal aggression): Bu insonning oʻz farovonligiga zarar yetkazishi mumkin boʻlgan, oʻzidan nafratlanish, ovqatlanmaslik va oʻzini jamiyatdan uzoqlashtirish kabi holatlarni oʻz ichiga olishi mumkin.

1.2. Destructive (passive aggression) : Bu odamlarga eʼtibor bermaslik, vazifalarni bajarishdan bosh tortish va istehzoli boʻlishni oʻz ichiga oladi, shuningdek, tushunmovchilik va nizolarga olib kelishi mumkin boʻlgan gʻazablangan yoki tajovuzkor narsalarni ochiq aytmaslik holatlarini oʻz ichiga olishi mumkin.

1.3. Destructive (uncontrolled anger): nazoratsiz gʻazab ishda, shaxsiy munosabatlarda va umumiy hayot sifatida muammolarga olib kelishi mumkin.

1.4. Destructive (anger issues) : Baʼzi odamlar uchun gʻazab alkogolizm yoki ruhiy tushkunlik kabi asosiy kasallikdan kelib chiqadi. Gʻazabning oʻzi buzilish deb hisoblanmaydi, lekin gʻazab bir nechta ruhiy kasalliklarning maʼlum alomatidir.

Bular eng koʻp ishlatiladigan “destructive” soʻzining muhim maʼnolari emas, lekin ularning har biri haqiqiy hayotda qoʻllaniladi. Kontekstga qarab, “destructive” soʻzi uchun turli maʼno uyalar foydalanilishi mumkin.

2. Anger (powerful): gʻazab koʻp hollarda adolatsizlikni bartaraf etish, oʻzini himoya qilish yoki ijobiy oʻzgarishlarni oshirish uchun toʻgʻri yoʻnaltirilganda kuchli boʻlishi mumkin.

2.1. Powerful for injustice or unfairness: Qabul qilingan adolatsizliklardan gʻazablanish, adolatsiz vaziyatlarga qarshi turish uchun motivatsiya va energiya berishi mumkin.

2.3. Powerful for feeling threatened or disrespected: Tahdid, hujum yoki hurmatsizlik hissiga javob sifatida gʻazab chegaralarni belgilashga va insonning farovonligini himoya qilishga yordam beradi.

2.4. Powerful for (unmet needs or goals): Muhim ehtiyojlar qondirilmaganligi yoki maqsadlarga erishishning oldini olish gʻazabi toʻsiqlarni yengib oʻtishga undaydi.

2.5. Powerful for unresolved issues: Oʻtmishdagi jarohatlar yoki hal etilmagan hissiy jarohatlardan kelib chiqqan gʻazabning asosiy sabablarini bu turga kiritish mumkin.

3. Anger (aggression): G'azab, agar u to'g'ri boshqarilmasa, ko'pincha o'rganilgan xatti-harakatlar, psixologik omillar yoki tahdidga qarshi kurashish zarurati tufayli tajovuzga aylanadi.

3.1. Aggression for childhood experience: Agressiyaga guvoh bo'lgan, ota-onalari yoki tarbiyachilarining zo'ravonligiga ega bo'lgan yoki o'qituvchilari va sinfdoshlari tomonidan shafqatsiz munosabatda bo'lgan bolalarda bu g'azab yuzaga kelishi mumkin.

3.2. Aggression for psychological reasons: turli xil psixologik sharoitlar odamlarda tajovuzni keltirib chiqarishi mumkin. Agressiv xatti-harakatlar, shuningdek, inson o'sgan muhitdan o'rganilgan xatti-harakatlarning natijasi bo'lishi mumkin.

3.3. Aggression for environmental factors: kundalik hayot va atrof-muhitdagi holatlar va qiyinchiliklar tajovuzkor xatti-harakatlarga yordam berishi mumkin. Masalan, zo'ravonlik va tajovuz tez-tez uchraydigan mahalla yoki jamoada o'sish kabi holatlar bu kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Anger (problem-solving): g'azab bizni harakat qilishga, samarali muloqot qilishga, o'zimiz haqida fikr yuritishga, asosiy muammolarni hal qilishga va vaziyatlarni nazorat qilishga undasa, muammoni hal qilishda yordamchi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

4.2. Problem-solving for preventing recurrence: Asosiy muammolarni hal qilish orqali odamlar g'azabni qo'zg'atuvchi vaziyatlarning takrorlanishining oldini olishga harakat qilishlari va uzoq muddatli g'azabni boshqarishga hissa qo'shishlari mumkin.

4.3. Problem-solving for fostering the understanding: G'azabni boshqarishda muammolarni hal qilish g'azabga hissa qo'shadigan omillarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, g'azabni samarali boshqarishning muhim elementlarini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "g'azab" tushunchasini o'rganish insoniyat tajribasida uning chuqur ahamiyatini ochib beradi. Uning kelib chiqishi, namoyon bo'lishi va oqibatlarini o'rganish natijasida g'azab ko'p qirrali o'lchovlarga ega bo'lgan murakkab tuyg'u ekanligi ayon bo'ladi. Uning ma'nodoshlarini aniqlash, har bir ekvivalent o'zining o'ziga xos kichik farqlari va jihatlariga ega ekanligini, turli darajadagi hissiy munosabatlar haqidagi tushunchalarni o'zida mujassam etishini o'rganadi. Ushbu tezis orqali g'azab va uning ekvivalentlarini, lug'aviy ma'no guruhlarini, etimologik tahlilini yanada chuqurroq tushunishga erishildi, bu esa insonning hissiyligi va xatti-harakati haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi. G'azabning murakkabligini va uning turli xil ifodalarini tan olish orqali biz shaxslararo mojarolarni boshqarish, tizimli adolatsizliklarni bartaraf etish va individual va jamiyat darajasida hissiy farovonlikni oshirish uchun yaxshi tayyorlanamiz. Biz insoniy his-tuyg'ularning chuqurligini o'rganishda davom etar ekanmiz, ushbu tadqiqot keyingi izlanish va tushunish uchun asos bo'lib xizmat qilsin, natijada o'zimiz va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarimizda hamdardlik, chidamlilik va ijobiy o'zgarishlarni rivojlantirsin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbek tilining etimologik lug'ati II jild Shavkat Rahmatullayev.Toshkent "Universitet" 2003. 545-bet
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Oltinchi jild.Toshkent. 2023. 520-521b.
3. W.Little,H.W.Fowler,J.Coulson.The Oxford Universal Dictionary Illustrated.Oxford University Press, 1965. – P.1973
4. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati- II jildli. Toshkent. 2022. 268-269 b.

5. https://www.oed.com/dictionary/anger_v?tl=true
6. <https://en.wiktionary.org/wiki/anger>
7. <https://cooljugator.com/etymology/en/anger>
8. <https://www.etymonline.com/word/anger>
9. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/anger>
10. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/anger>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).